

**2024 yil 09 oktabrda
№2024/D-0001-son bilan
TASDIQLANGAN**

**“OFB mobile” mobil ilovasida omonat ochish to‘g‘risida
OMMAVIY OFERTA**

“OFB mobile” mobil ilovasida omonat ochish to‘g‘risida ommaviy oferta (keyingi o‘rinlarda Oferta/Shartnoma deb yuritiladi) jismoniy shaxslarni Bankning “OFB mobile” mobil ilovasi orqali O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-370-moddalariga asosan, bank omonati shartnomasini tuzishga taklif qiladi.

Shartnoma Omonatchi tomonidan ushbu Shartnomada nazarda tutilgan harakatlarni amalga oshirgan paytdan boshlab tuzilgan hisoblanadi va qo‘shilish shartlari bo‘yicha hech qanday istisno yoki cheklovlarisz Shartnomaning barcha shartlarini so‘zsiz qabul qilish (akseptlash)ni anglatadi.

Omonatchi tomonidan ushbu ommaviy ofertani qabul qilish quyidagilarni anglatadi:

- omonatchi tomonidan Shartnomaning barcha shartlarini hech qanday istisno va cheklovlarisz to‘liq qabul qilish;
- nizolar va kelishmovchiliklar yuzaga kelganda Bankga Shartnoma qoidalariga murojaat qilish huquqini berish;
- barcha sud organlari, davlat organlari va tashkilotlarida ushbu Shartnomadan dalil sifatida foydalanish imkoniyati.

Ushbu Ommaviy ofertaning elektron shaklda qabul qilinishi Shartnomaga yozma shaklda tuzilgan shartnomalarga xos bo‘lgan barcha huquqiy oqibatlarni beradi.

1.

ShARTNOMA PREDMETI

1.1.

Omonatchi tanlagan omonat turiga Bankning mobil ilovasi orqali naqd pulsiz shaklda mablag‘larni kiritadi. Bank omonat mablag‘larini qaytarish va shartnoma shartlariga muvofiq foizlarni to‘lash majburiyatini oladi.

2.

OMONAT ShARTLARI

2.1.

Omonatchi omonat turini mustaqil ravishda belgilaydi va unga quyidagi usullardan biri bilan mablag‘ qo‘yadi:

2.1.1.

bank kartasi orqali naqdsiz shaklda;

2.1.2.

Bankda ochilgan boshqa omonatdan pul mablag‘larini o‘tkazish. Barcha operatsiyalar “OFB mobile” mobil ilovasi orqali amalga oshiriladi.

2.2.

Bank tomonidan taklif etilayotgan mobil ilovada joylashtirilgan barcha bank omonatlarining to‘liq shartlari, shu jumladan omonat turlari, ularni ochish tartibi, joylashtirish shartlari, foiz stavkalari va foizlarni to‘lash tartibi va shartnomaning ajralmas qismi hisoblanadi.

2.3.

Omonat Omonatchining masofaviy bank tizimidagi hisob raqamiga o‘tkaziladi va Bankning markazlashtirilgan ma’lumotlar bazasida qayd etiladi.

- 2.4.** Masofaviy kanallar orqali muddatli omonat ochilganda, Omonatchiga quyidagi hisobvaraqlar ochiladi:

 - 2.4.1.** Muddatli omonat summasini hisobga olish uchun 20606 – sonli hisob raqam.
 - 2.4.2.** Omonat bo'yicha foizlarni hisobga olish va boshqa operatsiyalarni amalga oshirish uchun 20206/22616 – sonli hisob raqam.

- 2.5.** Agar O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga asosan Omonatchining (shu o'rinda norezident Omonatchi) Omonat bo'yicha olingan daromadalaridan soliq ushslash belgilangan bo'lsa, Bank Omonatchining soliq agenti sifatida tegishli bo'lgan pul mablag'larini Davlat byudjetiga o'tkazadi.

3. FOIZLARNI HISOBBLASh, TO'LASH VA OMONAT SUMMASINI QAYTARISh TARTIBI

- 3.1.** Omonat bo'yicha foizlar har kuni omonat summasining qoldig'iga yillik foiz stavkasidan va 365 kunlik bazaviy muddatdan kelib chiqib hisoblanadi.
- 3.2.** Omonat bo'yicha foizlarni hisoblash depozit hisobvarag'iga pul mablag'lari kiritilgan kundan keyingi kundan boshlanadi va omonat qaytarilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra mablag' hisobdan chiqarilgan kundan oldingi kuni to'xtaydi.
- 3.3.** Omonat bo'yicha foizlarni hisoblash O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlariga muvofiq omonat hisobraqami xatlangan muddatiga to'xtatiladi.
- 3.4.** Omonatga kiritilgan qo'shimcha mablag'lar bo'yicha foizlarni hisoblash ushbu mablag'lar omonat hisobvarag'iga kirim qilingan kundan keyingi kundan boshlanadi va qo'shimcha mablag'lar qaytarilgan yoki boshqa sabablarga ko'ra hisobdan chiqarilgan kundan oldingi kuni to'xtaydi.
- 3.5.** Foizlar ushbu Sharhnomalariga muvofiq hisoblab chiqiladi va to'lanadi. Omonatchining iltimosiga binoan Sharhnomalariga muddatidan oldin bekor qilingan taqdirda, agar omonat shartida boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, omonat bo'yicha foizlar to'lanmaydi. Foizlar oldindan to'langan taqdirda, bunday foizlar miqdori qayta hisoblab chiqiladi va depozit valyutasida omonat summasidan chegirib tashlanadi.
- 3.6.** Omonat muddati tugagandan so'ng omonatning asosiy summasi masofaviy xizmat ko'rsatish tizimida ochilgan talab qilib olinguncha depozit hisobvarag'iga o'tkaziladi. Omonatchi ushbu hisobvaraqlariga mablag'larni o'zining bank kartasiga o'tkazish yoki yangi omonat ochish yo'li bilan mustaqil ravishda boshqarishi mumkin. Agar omonat muddati tugagandan so'ng pul mablag'lari talab qilinmasa, foizlarni hisoblash to'xtaydi.
- 3.7.** Omonatni yopishda omonat ochilgan valyutadagi omonatning asosiy summasi masofaviy xizmat ko'rsatish tizimida ochilgan talab qilib olinguncha hisobvarag'iga o'tkaziladi.

4. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

- 4.1.** **Omonatchi quyidagi huquqlarga ega:**
 - 4.1.1.** Omonatchi omonat operatsiyalari to'g'risida, jumladan, har bir operatsiyaning sanasi va summasi, hisobvaraqlariga qoldiq, hisoblangan foizlar, shuningdek omonatni qo'yish shartlari va shartlariga oid boshqa ma'lumotlarni olishga haqli.
 - 4.1.2.** Omonat hisobvarag'i bo'yicha ko'chirmalarni bank tomonidan belgilangan tartibda bankga murojaat qilib yoki mobil ilova orqali olish.
 - 4.1.3.** Omonat va hisoblangan foizlar bo'yicha pul mablag'larni boshqa hisob raqamlarga o'tkazish, yoki undan tovarlar va xizmatlar uchun to'lovlar amalga oshirish uchun foydalanish orqali erkin boshqarish.

- 4.1.4.** Omonat summasini muddati tugagandan keyin, shuningdek, ushbu Shartnomada belgilangan tartibda muddatidan oldin talab qilish.
- 4.2. Bank quyidagi huquqlarga ega:**
- 4.2.1.** Omonatchi Omonat summasini muddatidan oldin talab qilgan taqdirda, agar omonat shartida boshqa shartlar nazarda tutilmagan bo'lsa, Omonatning asosiy summasi bo'yicha ilgari to'langan foizlarni ushlab qolish;
- 4.2.2.** Ijro hujjatlar kelib tushgan taqdirda, Bank quyidagi choralarni ko'rishga haqli: Omonatchining mablag'larini xatlash, pul mablag'larini akseptsiz hisobdan chiqarish, hisobvaraq bo'yicha operatsiyalarni to'liq yoki bir qismini to'xtatish turish, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa choralarni qo'llash.
- 4.2.3.** Agar Omonatchi yoki Omonatchining operatsiyasi sanksiyalarga duchor bo'lsa yoki unga nisbatan sanksiyalar qo'llanilishi ehtimoli mavjud bo'lsa, Omonatchidan operatsiyalarni o'rganish uchun qo'shimcha hujjatlarni talab qilish, amalga oshirilgan operatsiyalar miqdorini cheklash, Omonatchining operatsiyasi so'rovnomada ko'rsatilgan Omonatchi (nerezident) profiliiga mos kelmagan hollarda Omonatchi uchun operatsiyalarni cheklash (operatsiyalarni amalga oshirishni rad etish) yoki operatsiyani bajarishni rad etish va ushbu shartnomani bir tomonlama bekor qilish.
- 4.2.4.** Bank yangiliklari, yangi mahsulot va xizmatlar haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan axborotlarni yuborish.
- 4.2.5.** Omonatchining ko'rsatmasisiz Omonatchining kreditlari, mikrokreditlari va lizingi bo'yicha qarzlarini to'lash uchun omonatdan mablag'larni yechib olish. Bunday holda, Bank ushbu mablag'lar o'tkazilgan kundan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmay Omonatchining mobil telefon raqamiga uning hisobvarag'idan pul mablag'larini yechib olishning miqdori va sabablari ko'rsatilgan bildirishnoma (xabarnoma) yuboradi.
- 4.2.6.** Shartnoma shartlariga muvofiq Omonat bo'yicha amalga oshirilgan operatsiyalar uchun Bank tariflarida belgilangan miqdorda komissiya undirish.
- 4.3. Omonatchi quyidagi majburiyatlarni oladi:**
- 4.3.1.** Qonun hujjatlari va Bankning ichki hujjatlari muvofiq, ushbu Shartnoma shartlari va Bank tariflari o'zgartirilishi bilan muntazam tanishib borish.
- 4.3.2.** Ushbu Shartnoma shartlarini diqqat bilan o'rganib chiqish va ularga qat'iy rioya qilish.
- 4.3.3.** Omonat ochish uchun Omonatchi Bankning bank kartasiga egasi bo'lishi yoki Bank tomonidan taqdim etilgan boshqa usulda pul mablag'larini kiritish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bank pul mablag'larini kiritish usullarini o'zgartirish huquqini o'zida saqlab qoladi.
- 4.3.4.** Bank omonat bo'yicha bank operatsiyalarini amalga oshirganlik uchun Omonatchidan bank tariflariga muvofiq komissiya undirishga haqli.
- 4.3.5.** Manzil va/yoki telefon raqami, shu jumladan mobil telefon, familiya, ism yoki otasining ismi o'zgarganligi yoki shaxsingizni tasdiqlovchi hujjat almashtirilganligi to'g'risida Bankni uch ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish.
- 4.3.6.** "OFB mobile" mobil ilovasiga kirish uchun zarur bo'lgan login, parol va PIN-kodning maxfiyligini ta'minlash va ularni uchinchi shaxslarga bermaslik. Omonatchi o'z ma'lumotlari yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar uchun to'liq javobgar hisoblanadi.
- 4.3.7.** O'zining akkauntiga ruxsatsiz kirish holatlari haqida darhol Bankni xabardor qilish. Voqeа haqida xabar berilmagan taqdirda, Omonatchi ruxsat etilmagan operatsiyalar bilan bog'liq barcha oqibatlar uchun javobgardir.

- 4.4. Bank quyidagi majburiyatlarni o'z zimmasiga oladi:**
- 4.4.1.** Joriy va taklif etilayotgan omonatlarning shartlari to'g'risida to'liq va ishonchli ma'lumotlarni o'z rasmiy veb-saytida umumiyligida foydalanish uchun joylashtirish;
- 4.4.2.** Foizlarni hisoblash va to'lash, shuningdek, ushbu shartnoma shartlariga muvofiq omonat summasini qaytarish.
- 4.4.3.** Omonat summasining saqlanishi va yaxlitligini ta'minlash, bunda amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollatlar va fors-major holatlari mustasno.
- 4.4.4.** Omonatchi va uning omonati to'g'risidagi bank sirini tashkil etuvchi ma'lumotlarning maxfiyligini ta'minlash. Bunday ma'lumotlarni uchinchi shaxslarga taqdim etish faqat amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hollarda va tartibda amalga oshirish.

5. ShAXSIY MA'LUMOTLARNI QAYTA IShLASH

- 5.1.** Ushbu bilan Foydalanuvchi mustaqil, o'z xohish-istagi va manfaatlari yo'lida Bankga noma'lum muddatga o'zining shaxsiy ma'lumotlaridan, Bank faoliyati uchun, Shartnomada ko'rsatilgan shartlarni Bank tomonidan bajarilishi, shuningdek qonunga zid bo'limagan boshqa maqsadlar yo'lida foydalanish va ishlov berishga cheklanmagan muddatga o'zining roziligidini beradi. Shuningdek, Foydalanuvchi ushbu Shartnomani shartlari bajarish maqsadida Bank tomonidan shaxsiy ma'lumotlarini uchinchi shaxslarga taqdim etilishiga o'z rozilik beradi.
- 5.2.** Har qanday ma'lumotlarni (shaxsiy va / yoki mijozning aloqa ma'lumotlar)ga ishlov berish avtomatlashtirish vositalari yordamida yoki ularsiz amalga oshiriladi, shu jumladan mazkur Shartnomaning imzolanishi munosabati bilan Bankka taqdim etilgan shaxsiy ma'lumotlarni yig'ish, tizimlashtirish, to'plash, saqlash, tushuntirish, foydalanish, tarqatish (jumladan Bakning hamkorlariga ham), egasizlantirish, cheklab qo'yish, yo'q qilish, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligidagi nazarda tutilgan boshqa harakatlarni amalga oshirish kiradi.
- 5.3. Mazkur Ommaviy ofertani akseptlash orqali Foydalanuvchi quyidagilarga o'z roziligidini beradi:**
- 5.3.1.** Bank tomonidan ro'yxatga olish paytida va bankka taqdim etilgan boshqa hujjatlarda ko'rsatilgan aloqa ma'lumotlardan Foydalanuvchi ushbu Shartnomada doirasida xizmat ko'rsatish bilan bog'liq har qanday ma'lumotlar to'g'risida xabardor qilish uchun foydalaniishi.
- 5.3.2.** Bank xizmatlaridan foydalanish bilan bog'liq reklama, tijorat va boshqa ma'lumotlarni (mobil telefon raqami, elektron pochta manzili va shaxsiy kabinet), shu jumladan bankning yangi xizmatlari va bankning qo'shma mahsulotlari va uchinchi shaxslar haqidagi ma'lumotlarni xabarnomalar yuborish orqali qabul qilish.
- 5.3.3.** Ushbu bandda ko'rsatilgan ma'lumotlarni Shartnomani bajarish, shuningdek Shartnomani bajarish bilan bevosita yoki bilvosita bog'liq bo'lgan boshqa maqsadlarda mablag'larni oluvchi plastik kartani chiqargan Bank-emitentga taqdim etish.
- 5.3.4.** Davlat soliq xizmati organi va boshqa organlarning ma'lumotlarga ishlov berish Markazidagi shaxsga doir ma'lumotlardan foydalanish (olish).
- 5.4. Foydalanuvchi taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarga ishlov berilishi quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:**
- 5.4.1.** Foydalanuvchini identifikasiyalash.

- 5.4.2.** Foydalanuvchi bilan tuzilgan kelishuv/Shartnomalar, shuningdek Bank hamkorlari bilan tuzilgan kelishuvlar doirasida olingan majburiyatlarni lozim darajada bajarish.
- 5.4.3.** Bank bilan tuzilgan kelishuv/Shartnomalar doirasida olingan majburiyatlarni Foydalanuvchi tomonidan lozim darajada bajarilishi.
- 5.4.4.** Foydalanuvchi bilan aloqaga chiqish, shuningdek mobil ilovadan foydalanish bilan bog'liq xabarnoma, so'rovnama va ma'lumotlar yo'llanishi.
- 5.4.5.** Egasizlantirilgan ma'lumotlarga asosan statistik va boshqa tadqiqotlar o'tkazish.
- 5.4.6.** Reklama-axborot materiallarini telefon, faksimilya, elektron pochta va boshqa to'g'ridan-to'g'ri aloqalardan foydalanish orqali tarqatish.
- 5.4.7.** Mobil ilovadan foydalangan holda noqonuniy harakatlarni amalga oshirilishini oldini olish/bartaraf qilish.
- 5.4.8.** O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga zid bo'Imagan boshqa maqsadlar.

TARAFLARNING MAJBURIYATLARI

- 6.1.** Ushbu Shartnomma bo'yicha majburiyatlarni bajarmaganlik yoki lozim darajada bajarmaganlik uchun aybdor O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq javobgar bo'ladi, bunda, xususan, yetkazilgan zararni qoplash, neustoyka to'lash, shuningdek, boshqa fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralar ko'riliши mumkin.
- 6.2. Omonatchi quyidagilar uchun javobgarlik/tavakkalchilikni o'z zimmasiga oladi:**
 - 6.2.1.** Mobil ilovala, shaxsiy kabinet yoki boshqa masofaviy xizmat ko'rsatish kanallari orqali olingan omonatning holati va operatsiyalari, shu jumladan omonat summasi, tranzaktsiyalar tarixi va boshqa ma'lumotlarning saqlanishi. Omonatchi o'z ma'lumotlarini himoya qilish uchun xavfsizlik choralariga rioya qilishga majburdir;
 - 6.2.2.** O'zining ma'lumotlari (login, parol, PIN kod) va ular yordamida amalga oshirilgan barcha operatsiyalar bo'yicha ma'lumotlarning saqlanishi. Omonatchi o'z ma'lumotlarini himoya qilish, shu jumladan murakkab parollardan foydalanish, ularni muntazam ravishda o'zgartirish va hisob ma'lumotlarining uchinchi shaxslarga o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik uchun xavfsizlik choralariga rioya qilish majburiyatini oladi. Omonatchining akkauntiga uning aybi bilan ruxsatsiz kirish sodir bo'lgan taqdirda, Omonatchi ko'rilgan barcha zararlar uchun javobgar bo'ladi.
 - 6.2.3.** Akkauntga kirish uchun talab qilinadigan ma'lumotlarni oshkor qilish yoki xavfsizlik talablariga rioya qilmaslik natijasida uchinchi shaxslar tomonidan masofaviy bank xizmatiga ruxsatsiz kirish va uning oqibatlari uchun.
- 6.3. Bank quyidagilar uchun javobgar deb hisoblanmaydi:**
 - 6.3.1.** O'z manzili va (yoki) telefon raqami, shu jumladan mobil telefoni, familiyasi, ismi yoki otasining ismi o'zgarganligi yoki shaxsni tasdiglovchi hujjatning almashtirilganligi to'g'risida o'z vaqtida xabar bermaslik, buning natijasida masofaviy xizmat ko'rsatish to'xtatilishi mumkin bo'lgan yoki bank siri oshkor etilishi mumkin bo'lgan holatlarda.
 - 6.3.2.** Omonatchining mobil telefoning yo'qolishi, o'g'irlanishi yoki uchinchi shaxslar qo'liga tushib qolishi holatlarida masofaviy bank xizmatlaridan foydalangan holda amalga oshirilgan barcha ruxsatsiz operatsiyalar (pul o'tkazmalari, tovarlar va xizmatlar uchun to'lov va h.k.). Mobil telefon yo'qolgan yoki o'g'irlangan taqdirda Omonatchi zudlik bilan bankni masofaviy bank xizmatlaridan foydalanishni bloklash to'g'risida xabardor qilishi shart.

- 6.3.3.** Omonatchi tomonidan Mobil ilova/Internet-banking xizmatiga kirish uchun login va parolning oshkor etilishi va buning natijasida uning hisobiga ruxsatsiz kirishga olib kelishi mumkin bo‘lgan harakatlarni amalga oshirishi.
 - 6.3.4.** Omonatchining hisob raqamiga ruxsatsiz kirish natijasida yetkazilgan zarar, shu jumladan moliyaviy yo‘qotishlar, obro‘siga putur yetkazish va boshqa salbiy oqibatlar.
 - 6.3.5.** Omonatchining beparvoligi, harakatlari yoki harakatsizligi natijasida Omonatchining har qanday moliyaviy yo‘qotishlariga olib kelgan/olib keladigan bitimlarning uchinchi shaxslar tomonidan amalga oshirilishi.
 - 6.3.6.** Omonatchining akkauntiga uchinchi shaxslar tomonidan kirish orqali, Omonatchi tomonidan bu haqida Bankka yozma ariza taqdim etilgunga qadar, omonat bo‘yicha ruxsatsiz amalga oshirilgan operatsiyalar.
- 6.4.** Omonatchi hisobvaraqqa qo‘ylgan mablag‘lar qonuniy yo‘l bilan olinganligi va uning yoki qonuniy vakillarining (ota-onalari, vasiylari, homiylari) mulki ekanligiga kafolat beradi. Bank ushbu mablag‘larning kelib chiqishi uchun javobgar emas va ularning qonuniyligini kafolatlamaydi. Pul mablag‘larining kelib chiqishi bilan bog‘liq uchinchi shaxslardan da’volar kelib tushgan taqdirda, Omonatchi yakka tartibda javobgar bo‘ladi.

QO‘ShIMChA ShARTLAR

- 7.1.** Omonatchining bank mobil ilovasi/internet-banking tizimidagi login va parolidan foydalangan holda boshlangan va tasdiqlangan Omonat bo‘yicha barcha operatsiyalar uning ko‘rsatmasi bo‘yicha amalga oshirilgan deb hisoblanadi va ushbu operatsiyalar natijasi Omonatchi tomonidan so‘zsiz qabul qilinadi.
- 7.2.** Omonatchi ushbu Shartnomada shartlarini qabul qilish orqali, Omonatchi omonatning barcha shartlarini va Bankning Mobil ilovasi/Internet-bankingi orqali masofaviy xizmat ko‘rsatishni, Bank tariflarini o‘rganganligini va ular bilan tanishganligini, ularga roziligini va ularni tan olganligini tasdiqlaydi.
- 7.3.** Omonatning qaytarilishi Bankning mol-mulki va aktivlari hisobidan ta’milanadi hamda “Fuqarolarning banklardagi omonatlarini himoyalash kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunga muvofiq Fuqarolarning banklardagi omonatlarini kafolatlash jamg‘armasi tomonidan kafolatlanadi.
- 7.4.** Agar ushbu Shartnomadan kelib chiqadigan nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo‘li bilan hal qilishning iloji bo‘lmasa, ular O‘zbekiston Respublikasining amaldagi Qonunchiligiga muvofiq mazkur Shartnomada bo‘yicha Omonatni qabul qilgan Bank hududiy bo‘linmasi joylashgan yerdagi tegishli sudda hal qilinishi kerak.
- 7.5.** Ushbu shartnomada nazarda tutilmagan hollarda Taraflar O‘zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligi talablariga amal qiladilar.
- 7.6.** Omonat summasi Bank tomonidan olingan paytdan boshlab ushbu shartnomada tuzilgan hisoblanib, kuchga kiradi va tomonlar o‘z majburiyatlarini to‘liq bajarmagunicha amal qiladi.
- 7.7.** Omonat mablag‘lari 20206/22616 hisobvarag‘iga o‘tkazilgandan so‘ng, Omonatni saqlash muddati tugagandan so‘ng avtomatik ravishda yopiladi.
- 7.8.** Bank O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan 2021-yil 25-dekabrdagi 81-sonli bank litsenziyasi asosida jismoniy shaxslardan mablag‘larni omonatga jalb qilish bo‘yicha bank operatsiyalarini amalga oshiradi.